



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlar uchun namunaviy etika qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida” 2024-yil 1-fevraldagi Qonunida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlar uchun namunaviy etika qoidalari 1-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlar uchun namunaviy etika qoidalarini tanishtirish varaqasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov) Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov) bilan birgalikda:

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlar uchun namunaviy etika qoidalari (keyingi o‘rinlarda – Qoidalar)ga amal qilinishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatsin;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlar etikasi bilan bog‘liq qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, zamon talablari asosida Qoidalarni takomillashtirib, zarur holatlarda unga o‘zgartirish hamda qo‘shimchalar kiritish yuzasidan takliflar kiritib borsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari boshliqlari:

mazkur Qoidalarni tizimdagi barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga yetkazsin;

Qoidalarning maqsad va vazifalarini maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi barcha pedagog-xodimlarni maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda umumiy o'rta ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan tanishtirilishini ta'minlasin.

4. Axborot xizmati (D.Sobirova) mazkur buyruq bilan tasdiqlanayotgan Maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlar uchun namunaviy etika qoidalarini vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng yoritib borsin.

5. Devonxona (H.Raximboyeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari F.Boqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2024-yil " 12 " -iyun,
187-son

**Maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda umumiy o‘rta ta’lim
muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlar uchun
NAMUNAVIY ETIKA QOIDALARI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlar uchun namunaviy etika qoidalarini (keyingi o‘rinlarda – Qoidalar) maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun axloq qoidalarini, o‘doba-xloq tamoyillari, xulq-atvor me’yorlariga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

Ushbu Qoidalar maktabgacha ta’lim tashkiloti va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida (keyingi o‘rinlarda — ta’lim muassasalari) faoliyat olib borayotgan pedagog-xodimlar mavqeining daxlsizligini e’tirof etish, inson va uning qadri-qimmatini, huquqlariga hurmatni oshirish, yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, o‘doba-xloq qoidalariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarning oldini olish, muloqot madaniyatini rivojlantirish hamda keng jamoatchilikda ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlarga nisbatan hurmat va ishonchni oshirishga qaratilgan.

2. Mazkur Qoidalar:

- ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari hamda ta’lim muassasasi jamoatchiligining boshqa vakillari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish;

- insoniy qadriyatlarini himoya qilish;

- pedagoglarning kasbiy faoliyati sifatini va o‘z kasbining sharafini qo‘llab-quvvatlash;

- ta’lim muassasalarida ishonch, mas’uliyat va adolatga asoslangan madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

3. Qoidalarining maqsadi – ta’lim muassasalarida sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirish, tarbiyalanuvchilar va o‘quvchilarga zamon talablariga muvofiq milliy qadriyatlar asosida ta’lim-tarbiya berish, shaxs va uning qadri-qimmatini, huquqlarini hurmat qilish, o‘doba-xloq madaniyati va muloqot qobiliyatini rivojlantirish, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish, pedagogik jarayon ishtirokchilari xavfsizligini ta’minlashga imkon beradigan do‘stona ish muhitini yaratish hamda ta’lim muassasasi mulkini asrab-avaylashdan iborat.

4. Qoidalar ta’lim muassasalari va uning hududida, ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatda, darsda, tanaffusda, darsdan tashqari mashg‘ulotlar paytida hamda ta’lim va tarbiya bilan bog‘liq tadbirlar davomida ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o‘zini tuta bilishini tartibga soladigan me’yorlar to‘plami hisoblanadi.

5. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tatbiq etiladi, nodavlat va boshqa turdagi o'quv muassasalari uchun tavsiyaviy xususiyatga ega.

6. Mazkur Qoidalariga rioya qilish ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun ta'lim muassasalari hududi doirasida majburiy hisoblanadi.

2-bob. Pedagog-xodimlarning namunaviy etika qoidalariga rioya qilishi

7. Ta'lim muassasalarida qoidalar O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va qonun osti hujjatlari hamda umuminsoniy axloqiy me'yorlarga asosan o'rnatiladi.

8. Qoidalar insonparvarlik, adolat, professionallik, mas'uliyat, bag'rikenglik, demokratiya, sheriklik va birdamlik kabi asosiy tamoyillarga asoslanadi.

Ta'lim muassasalarida shaffoflik, hamjihatlik, bag'rikenglik, o'zaro ishonch, izzat-hurmat, xavfsiz, do'stona muhitni yaratish pedagog-xodimlarning o'zaro munosabatlaridagi muhim shartlardan biri hisoblanadi.

9. Ta'lim muassasalari har bir tarbiyalanuvchi va o'quvchilarga e'tiborli, odilona munosabatni ta'minlaydi, ta'lim-tarbiya jarayonida barcha tarbiyalanuvchi va o'quvchilarning chuqur bilim va zamonaviy kompetensiyalarni egallashlari uchun teng imkoniyatlarni yaratadi.

10. Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari ta'lim muassasalarida quyidagi etika qoidalariga amal qilishlari lozim:

Pedagog-xodimlarning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishlari;

o'zaro munosabatlarda yagona jamoa sifatida hurmat, do'stlik, hamjihatlik, halollik va adolat tamoyillariga rioya etishlari;

turli xil zo'ravonlik va kamsituvchi xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslik;

pedagog-xodimlar tasdiqlangan mashg'ulotlar jadvali asosida ishga va darsga o'z vaqtida kelishlari;

pedagog-xodimlar ish vaqtida kasb madaniyati hamda ta'lim muassasalarining Ustavi bilan tasdiqlangan talablarga ko'ra kiyinishlari;

kiyimlarning o'ta tor yoki o'ta keng bichimda bo'lmasligi;

kiyimlarning toza va dazmollangan bo'lishi.

Ta'lim muassasalari Ustavida pedagog-xodimlarning mehnat faoliyati davomida kiyinish madaniyatiga bo'lgan talablar aks ettirilmagan bo'lsa, quyidagilar talab etiladi:

erkaklar mavsumga qarab — klassik uslubdagi shim, kostyum-shim (*imkon qadar qora, to'q ko'k rangdagi*), ko'ylak (*oq, havorang va shu kabi*), bo'yinbog', poyabzal (*qora rangda bo'lishi tavsiya etiladi*) kiyishi;

ayollar mavsumga qarab – klassik uslubdagi yubka, kostyum-yubka (*imkon qadar qora, to'q ko'k rangdagi*), havo haroratiga qarab klassik uslubdagi shim (*imkon qadar qora, to'q ko'k rangdagi*), tanani ochiq ko'rsatib turmaydigan yupqa (*harir*) bo'lmagan kofta (*oq, havorang va shu kabi*), ko'ylak, past poshnali yoki poshnasiz poyabzal (*qora rangda bo'lishi*) kiyishi;

(*Ta'lim muassasalari Ustavi bilan ta'lim muassasasi rahbariyati va pedagog-xodimlari formasining rangi va qo'shimcha belgilariga o'zgartirishlar kiritilishi*)

mumkin).

turli din va konfessiyalar hamda turli submadaniyatlarga mansubligini aks ettiruvchi kiyimlarda bo'lmashligi;

umume'tirof etilgan milliy-an'analarga va ma'naviy-axloqiy tarbiyaga zid keladigan yoki sport (*dars jarayonida maxsus yoki sport kiyimida jismoniy tarbiya va chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanlari o'qituvchilarining yurishiga ruxsat beriladi, shuningdek, ta'lim muassasasi hududida o'tkaziladigan turli sport va ko'ngilochar tadbirlar bundan mustasno*) kiyimlarida bo'lmashligi lozim.

Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining tashqi ko'rinishi bo'yicha quyidagi talablar belgilanadi:

tanasining ochiq qismi tatuirovka tushirilmagan yoki pirsing qilinmagan bo'lishi, sochi tartibga keltirilgan va yorqin (*g'ayrioddiy*) ranglarga bo'yalmagan bo'lishi;

erkaklarning soqoli olingan bo'lishi;

ayollar quloq va barmoqlardan tashqari tananing turli qismlariga zirak yoki metall buyumlar taqib yurmasligi;

o'z faoliyatida manfaatlar to'qnashuviga sabab bo'ladigan holatlarga yo'l qo'ymasliklari;

pedagog-xodimlar huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari bilan tanishib borishi, ularga og'ishmasdan amal qilishi, mavjud barcha standartlar, bayonlar, tavsiyalardan xabardor bo'lishlari lozim.

11. Ta'lim muassasasi hududida ishtirokchilarning munosabatlari o'zaro hurmat va xushmuomalalikka asoslanishi lozim. Biror bir taraf tomonidan boshqasining shaxsiyatiga zo'ravonlikni aks ettiruvchi va kamsituvchi xatti-harakatlarning sodir etilishiga yo'l qo'yilmaydi;

ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchi va o'quvchilar manfaatlari yo'lida barcha ma'lumotni ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillariga yetkazadi;

pedagog ta'lim muassasasi, oila va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda pozitiv va faolligini namoyish etishi lozim.

12. Pedagog-xodimlarga qo'yiladigan talablar:

ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat va darslarni o'z vaqtida, to'liq va sifatli olib borishi;

mavzudan tashqari mavzularga chalg'imaslik;

tarbiyalanuvchi va o'quvchilar shaxsini hurmat qilish;

ta'lim muassasalarida yuzaga keladigan har qanday muammoni qonun, oshkoralik va demokratik asosda hal qilish;

mahalla, jamoat joylarida o'zini yuksak pedagoglik maqomiga munosib tutish; doimiy ravishda o'z-o'zini shaxsiy va kasbiy rivojlantirib borish;

o'z yo'nalishi bo'yicha tarbiyalanuvchi va o'quvchilarga Davlat ta'lim standartlari darajasida bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish;

ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat va darsdan tashqari tadbirlar davomida tarbiyalanuvchi va o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda faol ishtirok etish;

“Ustoz-shogird” an’anasiga sodiq bo’lish;
o’zi yashaydigan mahallada ma’naviy-axloqiy tarbiya, “Mahalla pedagogikasi” muhitini yaratish, mahalla yoshlarini tarbiyalashda kasbiy fidoyilik, tashabbuslar ko’tarib, “mahalla yettiligi”ga ko’maklashish;
tarbiyalanuvchi va o’quvchilarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish yoki ruhiy ziyon o’tkazish holatlariga yo’l qo’ymaslik;
tarbiyalanuvchi va o’quvchilarning shaxsiga doir ma’lumotlarni guruhdoshlari va sinfdoshlari oldida muhokama qilmaslik;
tarbiyalanuvchi va o’quvchilarni ommaviy izza qilmaslik;
tarbiyalanuvchi va o’quvchining ota-onasi yoki ularning qonuniy vakillari bilan shaxsiy adovatning oldini olish;
ta’lim muassasasi to’g’risidagi axborotlardan uning manfaatlari va obro’siga ziyon yetkazish uchun yoki o’z manfaatlari yo’lida foydalanmaslik;
tarbiyalanuvchi va o’quvchilarga shaxsan ma’naviy-axloqiy namuna ko’rsatish, ular bilan do’stona munosabatda bo’lish;
ta’lim muassasasi manfaatlariga zid bo’lgan har qanday xulqdan tiyilish va bunday holatlarning oldini olish;
biror-bir noxush voqea yoki hodisa ro’y bersa, zudlik bilan ta’lim muassasasi rahbariyatini xabardor qilish;
yoshlar orasida milliy qadriyatlar, sog’lom turmush tarzini keng targ’ib qilish, ularni zararli odatlardan va boshqa turli halokatli tahdidlar hamda jamiyatimiz uchun yot bo’lgan diniy ekstremizm, radikalizm ta’sirlaridan, “ommaviy madaniyat” xurujlaridan ogoh etib borish;
o’quvchilarni darsdan chiqarib yuborish, darsga kiritmaslik kabi holatlarga yo’l qo’ymaslik;
ta’limiy-tarbiyaviy faoliyat davomida tarbiyalanuvchilarga qo’pol munosabatda bo’lmaslik;
ta’lim-tarbiya mashg’ulotlarida diniy tashviqot olib bormaslik;
ta’lim muassasasiga spirtli ichimliklar iste’mol qilgan holda kelmaslik;
ta’lim muassasasining hududi va binosida spirtli ichimliklar hamda tamaki mahsulotlarini iste’mol qilmaslik;
ta’lim muassasasi hududi va binosida tarbiyalanuvchi va o’quvchilarning ta’lim-tarbiyasiga aloqasi bo’lmagan tadbirlarni tashkil etmaslik lozim.

3-bob. Yakuniy qoidalar

13. Maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda umumiy o’rta ta’lim muassasasining pedagog-xodimlari ushbu Qoidalar bilan har yangi o’quv yili boshida “Pedagogik kengash”da tanishtiriladi.

14. Qoidalarda aks ettirilmagan masalalar yuzasidan vujudga kelgan muammoli vaziyatlar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining
2024-yil “ 12 ”iyundagi
187-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

**Maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda umumiy o‘rta ta’lim
muassasalarida faoliyat yurituvchi pedagog-xodimlar uchun
namunaviy etika qoidalari bilan barcha ta’lim muassasalari pedagog-
xodimlarni tanishtirish
VARAQASI**

**“Namunaviy etika qoidalari” bilan tanishdim, unga so‘zsiz rioya
qilishni o‘z zimmamga olaman.**

_____ viloyati _____ tumani _____-sonli
maktabgacha/maktab ta’lim tashkiloti pedagog-xodimlari.

T/r	F.I.Sh.	Imzo
1.		
2.		
...		